

**GANDBOL O'YININING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.**

***Xomudjonova Feruza***

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti*

*Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, dotsent.*

***Shavkatova Mushtariy***

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti*

*3- kurs sirtqi bo'lim talabasi.*

***Annotatsiya:*** *Gandbol o'yini ancha yillar oldin paydo bo'lgan va hozirgacha rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Maqola mazmuni ham gandbol o'yinining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida boradi.*

**Kirish.**

Gandbol o'yini 1898 yillarga kelib Daniyaning Ordurupe shahridagi gimnaziyalardan birining o'qituvchisi X. Nelson tomonidan yaratilgan. Bu o'yin futboldan farqli o'laroq qizlar uchun ham mos keladigan, yomg'irli havoda ham sport zallarda o'ynasa bo'ladigan qulayliklarga ega edi. Shu bilan bir qatorda bu uyin uchun darvozabonni qoldirib jamoa sonini qisqartirib, to'pni uzatish, qabul qilish, otish, olib yurish va shunga xushagan harakatlarni qo'l bilan bajarishni taklif qilgan. Va shu tariqa qo'l to'pi o'yini vujudga kela boshlagan.

**Asosiy qism.**

Yuqorida aytib o'tilganidek Daniya gandbol o'yinining vatani hisoblanadi. Gandbol inglizchada hand - qo'l, ball - to'p degan ma'noni anglatadi, ya'ni qo'l to'pi. Bu uyin shu tariqa vujudga kelib, tez fursatlarda butun dunyoga tanilib ketti.

Qo'l to'pi uchun kattaligi 40 x 20 merli maydoncha kerak bo'ladi. O'yin 2 bo'limdan iborat bo'lib, erkaklar 1 soat, ayollar 50 daqiqa o'yinni davom ettirishadi. Xalqaro qo'l to'pi federatsiyasiga 1946 - yil 12 - iyulda asos solingan. 1972 - yil erkaklar, 1976 - yil ayollar qo'l to'pi Olimpia o'yinlariga kiritilgan. 1938 - yil erkaklar, 1956 - yil ayollar gandboli bo'yicha jahon birinchiliklari o'tkazilgan. Usha davrlarda gandbol sport turi tobora ommaviylashib kelgan, shu tariqa bu

o'yinga qonun qoidalar ishlab chiqilgan va yanada o'yin mustahkamlanib borgan. Bu o'yin uchun harakatchan bo'lish yetarli emas balki haql ham katta rol o'ynaydi.

Gandbol o'yini O'zbekistonga 1923 - 1924 - yillarda paydo bo'lib, birinchi musobaqa 1926 - yil Toshkentda o'tkazilgan. 1991 - yil O'zbekiston Respublikasi gandbol federatsiyasi tuzildi. Shu yildan boshlab gandbol chempionati muntazam ravishda o'rkazila boshladi. O'zbekiston gandbolchilari terma jamoasi ( ayollar) Osiyo chempionatida 4 - o'rinni egalladi va Germaniyada o'tkazilgan jahon birinchiligi musobaqalarida qatnashdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustozlari F. Abdurahmonov, V. Kaplinskiy, xizmat ko'rsatgan sport ustasi, Olimpia o'yinlari va jahon chempioni M. Vasilyev xalqaro miqyosdagi sport ustasi, jahon chempionlarining gandbol rivojlanishi va O'zbekistonni butun dunyoga tanilishiga katta hissa qushgan. Shu tariqa gandbol kashf qilinib, butun dunyoga tanilib bormoqda va bu bizning mamlakatimizga ham kirib keldi.

Xulosa.

Gandbol o'yini dunyo bo'yicha sevib o'ynaladigan va qiziqish tomosha qiladigan o'yin hisoblanadi. Gandbol uyining uziga yqrasha texnik ko'rinishlari mavjud bulib, ularni taktik usuli orqali olib boriladi va shu kurinishda o'ynaladi. Qo'l to'pi uyinida asosan o'yinchi to'p bilan muomala qilish, olib yurishlar, uzatishlar hamda sherigiga uzatishlar va aldab o'tishlar kabi usullarni mahorat bilan o'ynash lozim hisoblanadi. Gandbolchilar asosan qo'l harakatlari va kistlar yordamida ko'proq ishlashadi sababi qo'l bilan uzqtilgan har bir to'pning qayerga qayt tarzda yetib borishi harakatlarga bog'liq hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Pavlo Sh. K. Isroilov R. I. ,, Gandbol nazariyasi va uslubi".
2. Akromov J. Pavlov Sh. ,, Gandbol".